



Organization Of Education Of Traffic Rules To Pupils In A Digitalization Environment Through Modern Technologies

Jumayev Yunus Rashidovich

Senior Lecturer, Department of “Preschool Education Management” of the State Educational and Scientific Research Institute of Preschool Education

ABSTRACT

This article discusses methods for increasing the effectiveness of education by teaching traffic rules to small groups of students of preschool educational organizations in a digitalization environment through modern digital technologies

Keywords:

modern technologies, traffic rules, students, teachers, didactic tools, educational effectiveness.

Raqamlashtish Muhitida Tarbiyalanuvchlarga Yo‘L Harakati Qoidalariga Doir Ta’limni Zamonaviy Texnologiyalar Orqali Tashkil Qilish

MTTDMQTMOI “Maktabgacha ta’lim menejmenti” kafedrası katta o‘qituvchisi
Jumayev Yunus Rashidovich

Annatsiya: ushbu maqolada raqamlashtirish muhitida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining kichik guruh tarbiyalanuvchilariga yo‘l harakati qoidalarini zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali o‘rgatish orqali ta’lim samaradorligini oshirish usullari haqida aytib o‘rilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy texnologiyalar, yo‘l harakati qoidalar, tarbiyalanuvchilar, pedagoglar, didaktik vositalar, ta’lim samaradorligi.

Bugungi raqamli asrda ta’lim sohasining barcha bosqichlarida innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimida bolalarga yo‘l harakati qoidalarini interaktiv va zamonaviy shakllarda o‘rgatish – ularning hayot xavfsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi asosida yaratilgan texnologik imkoniyatlar ta’lim jarayoniga chuqur kirib bormoqda. XXI asrda raqamli texnologiyalarsiz ta’limni tasavvur qilish qiyin. Xususan,

bolalarda erta yoshdan yo‘l harakati qoidalarini bo‘yicha tushunchalarni shakllantirish ularning xavfsizligini ta’minlash va ongli yurish-turish madaniyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda 848-son qarorida maktabgacha ta’lim tizimida raqamlashtirish, zamonaviy ta’lim dasturlarini joriy etish hamda pedagog kadrlar malakasini oshirish ustuvor vazifalar etib belgilangan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish bolalarda

xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayoniga interaktiv vositalarni joriy qilish orqali nafaqat bilim berish, balki ularning ongli harakat qilish malakasini mustahkamlash mumkin. Shu bois, ushbu yo'nalish maktabgacha ta'limda ustuvor strategik vazifa sifatida e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Raqamli texnologiyalar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga yo'l harakati qoidalarini o'rgatish nafaqat ta'lim jarayonini boyitadi, balki ularni hayot uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Interaktiv, vizual va moslashuvchan yondashuvlar orqali bolalarda yo'l harakati madaniyatini shakllantirish, ularning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, pedagoglar zamonaviy raqamli vositalardan faol foydalanishlari zarur. O'zbekistonda 2021 yilning o'zidayoq 10 mingdan ziyod avariya sodir etilib, ularda 9 mingdan ortiq odam jarohatlandi, 2,5 mingga yaqin, jumladan 263 nafar bola halok bo'lgani katta fojia. Shuning uchun ham yo'l harakati qoidalarini yanada takomillashtirish, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, yo'l harakati xavfsizligini nazorat qilish va samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2022 yil 4 apreldagi PQ-190-son qaroriga muvofiq ravishda 2022 yilning 12 aprelida Vazirlar Mahkamasining «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi 172-sonli qarori qabul qilindi va ilova tariqasida yangi mazmundagi "Yo'l harakati qoidalarini" amalga joriy etildi. Unga "Aholi punktlarida transport vositalarining tezligini soatiga 70 kilometrdan, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari atrofidagi yo'llarda 300 metrgacha bo'lgan masofada 30 kilometrdan, turar joy dahalari va yondosh hududlarda (uy-joy binolari orasidagi yer uchastkasida) esa soatiga 20 kilometrdan oshirmasdan harakatlanish" kabi qoidalar kiritildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yo'l-transport hodisalarining 12–15% bolalar

ishtirokida sodir bo'lmoqda. Shu sababli, ularni erta yoshdan yo'l harakati madaniyatiga o'rgatish dolzarb sanaladi. Raqamli vositalar bu jarayonni intuitiv, xavfsiz va qiziqarli tarzda tashkil qilishga xizmat qiladi.

Kichik guruhlarda zamonaviy texnologiyalar asosida YHX bo'yicha olgan bilim-ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularda yoshiga xos murakkablikdagi YHX qoidalarini bo'yicha bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.

Ta'lim va tarbiya jarayonida xavfsiz harakatlanish qoidalarini bilan bog'liq tajribalar yangilanadi. Shu bilan birga, ularning o'rta guruhga nisbatan ko'proq mustaqil bo'lishi uchun o'yin, kuzatuv va eksperimentlarda sharoitlar yaratiladi. Bolalar (*pedagog bilan birgalikda*) o'yinlarda va yo'lda (*piyodalar, yo'lovchilar, haydovchilar sifatida*) xavfsiz harakatlanish qoidalariga rioya qilish mavzularida o'zlarini namoyon qilishadi. Bolalar yo'lda xavfsiz harakatlanish qoidalariga rioya qilish zarurligini eslatuvchi yo'l belgilarini o'rganishadi va tasvirlashadi.

Bolalar ishtirok etadigan kuzatishlar va eksperimentlar eng oddiy qonuniyatlarni ochib berishga va xavfli vaziyatlarning sabablarini aniqlashga qaratiladi. Bolalar tomonidan xavfli vaziyatlarni aniqlash, ulardan chiqish yo'lini izlashda faollik ko'rsatish bo'yicha tajribalarni ortirish davom ettiriladi. Katta guruhda bolalar bilan ishlashning ekskursiyalar, maqsadli sayohatlar, tavsiflovchi hikoyalar, o'z tajribasidan hikoyalar va boshqalar kabi shakllardan foydalanish imkoniyatlari kengayib boradi.^[1]

Pedagogning mashg'ulotni amalga oshirishdagi harakatlari:

➤ bolalarning yo'l harakati qoidalarini, yo'l belgilarini o'zlashtirish muhimligini tushunishlari uchun suhbatlar, didaktik o'yinlar tashkil qiladi;

➤ zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tushunchalarini beradi;

➤ har bir bolani zamonaviy planshetlar bilan ta'minlab qo'yishadi;

➤ yangi yo'l belgilari bilan tanishtiradi,

¹ Yo'l harakati qoidalarini (*ertalabki davra suhbatini*).

Nigmatov A.N., Buriev X.K., Mirsaatova Sh.R. *O'quv qo'llanma.*–Toshkent, 2023

ular qanday ma'no anglatishini aniqlaydi, ularning tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi;

➤ yo'l belgilari guruhlarini tanlaydi, ularni guruhlarga taqsimlash bo'yicha bilimlar beradi;

➤ ko'cha model(maket)idan foydalanib, u yoki bu yo'l belgisiga muvofiq piyodalarning harakat qilishini tashkil qiladi;

➤ yo'l belgisini ko'rgan haydovchilarning harakatlarini qanday o'zgarishini muhokama qiladi.

Pedagog planshetlar orqali svetofor maketiga sariq rangdagi kartochkani qo'yadi.

Zamonaviy texnologiyalarning ta'limdagi ustunliklari

<i>Texnologiya turi</i>	<i>Amaliy foydasi</i>
VR (virtual reallik)	Bolalarni real vaziyatga yaqin sharoitda o'rgatish (masalan, svetofor oldida).
AR (kengaytirilgan reallik)	Belgilarni jonlantirish, mobil qurilma orqali interaktiv holat yaratish.
Mobil ilovalar	O'zlashtirish darajasiga mos qoidalarining o'yinga asoslangan shakli.
Multimedia kontentlar	Video, animatsiya, slayd-shoular orqali eslab qolish osonlashadi.
Elektron platformalar	Masofaviy ta'lim, nazorat, o'zlashtirish darajasini tahlil qilish imkoniyati.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

➤ berilayotgan materialni chuqur va mukammal o'zlashtirish imkoniyati va uni ta'lim oluvchi xotirasida uzoq muddat saqlanishi va zarur bo'lganda amaliyotga qo'llash darajasi ortadi;

➤ zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bilim ko'nikmalariga ega bo'ladilar;

➤ axborotni turli shaklda (matn, video, ovoz, grafika, animatsiya, ...) berilishi ta'lim oluvchilarni diqqatini tortadi va ularni fanga qiziqishini uyg'otadi;

➤ kompyuter "nazoratchi" funksiyasini bajarib ta'lim oluvchining didaktik topshiriqlar, test savollari, muammoli vaziyatlarga bergan javoblarini, ya'ni o'zlashtirganlik darajasini aniqlab natijalarini monitorda ko'rsatadi;

➤ mashg'ulot jarayonida ta'lim oluvchilar faoliyatini boshqaruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi va bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar

Bolalar "Zebra chizig'i"dan o'tish uchun tayyorgarlik ko'radilar, sariq rangdagi kartochkalarni ko'rsatadilar va nima uchun yo'ldan o'tishni boshlamaganliklarini pedagogga so'zlab beradilar. Yurishni boshlagan va o'z e'tiborini svetoforga qaratmagan bolalar o'yinni tark etib, uning kuzatuvchisiga aylanadilar.

Ta'lim mohiyati. Bolalar mashg'ulot zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali kognitiv(*borliqni real qabul qilishga imkon yaratuvchi ko'nikma hosil qiluvchi jarayonlar*), nutqiy va psixologik rivojlantiriladi.

soni keskin ortadi, buning natijasida egallanishi lozim bo'lgan bilimlar hajmining oshishiga olib keladi;

➤ o'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilishini modifikatsiyalash, ya'ni o'qituvchi tomonidan bajarilayotgan ko'pgina tashkiliy ishlarni kompyuter texnikasi yordamida amalga oshirilib vaqt tanqisligi muammosi kamayadi;

➤ Ta'lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanib, mustaqil ta'lim olish imkoniyati sohalari kengayadi va tarbiyachi bilan erkin hamda teng muloqotga kirisha oladigan hamkorga aylanadi.

Multimedia va zamonaviy raqamli texnologiya vositalari asosida ta'lim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar tarbiyalanuvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda

mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarini o'rganish jarayonida yana bir bor ishonch xosil qildik. Multimedia vositalari asosida tarbiyalanuvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish xozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Tarbiyachilar multimedia texnologiyalari asosida ta'lim katta samara beradi. Buning uchun esa mashg'ulotlarning har bir mavzusi bo'yicha dars ishlanmalari yaratilishi lozim. Ana shu ishlanma asosida barcha mavzularga oid zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari yordamida bayon etilishi lozim bo'lgan nazariy va amaliy materiallarning electron taqdimoti shakli tayyorlanadi. Mashg'ulot ishlanmalariga taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoprojektorlar orqali tarbiyalanuvchilarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Planshetlar va zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali multimediali taqdimot nafaqat matnli va ko'rgazmali balki ovozli, animatsiyali bo'lishi pedagoglartomonidan mavzuni mukammal o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarni intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularning har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish – davlatimiz siyosatini ustivor yo'nalishga aylangan. Chunki jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk shaxslargina buyuk kelajakni yaratadi. Bolalarga o'rgatish mashg'ulotlari davomida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini ham oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyasini shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni, multimedialardan foydalanish uni MTTlarda samarali qo'llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Yo'l harakati qoidalariga doir o'yin jarayonida guruhli, yakkama-yakka ish, birgalikda muhokama, test o'tkazish va so'rov, rolly vaziyat yaratishlardan foydalanish mumkin. Boshqacha qilib aytganda,

anketa o'tkazish, sosiometriya, "aqliy hujum" va boshqa uslublarni cheklangan miqdorda birga olib borish vafoydalanish imkoniyatini beradi.

Tarbiyalanuvchilarda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalana olish savodxonligini shakllantirishning asosiy maqsadi

— ta'lim-tarbiya jarayonida, xususan, yo'l harakati qoidalarini o'rgatishda raqamli vositalar orqali eshitish, ko'rish va amaliy faoliyat asosida mustahkam ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir. Pedagog bu jarayonda nazorat va yo'naltiruvchi rolni bajarib, bolalarning mustaqil ishlashga o'tishini bosqichma-bosqich tashkil etadi. Shu orqali bolalarda nafaqat AKT bilan ishlash malakasi, balki yo'l harakati madaniyati, xavfsizlik qoidalariga ongli yondashuv ham shakllanadi. Ma'lumki, maktabgacha ta'limning bosh maqsadi — bola shaxsini sog'lom, aqliy va ijtimoiy jihatdan yetuk, maktab ta'limiga tayyor holda tarbiyalashdan iboratdir. Bugungi axborot asrida esa bu maqsadga erishish yo'lida yo'l harakati qoidalarini raqamli texnologiyalar asosida o'rgatish — maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning raqamli savodxonligini oshirish bilan bir qatorda, ularni yo'l harakati qoidalarini bilan tanishtirishda AKT vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limiy o'yinlar, videoroliklar va interaktiv topshiriqlar orqali bolalar tinglash, ko'rish va harakat orqali real hayotdagi yo'l harakati holatlarini mustahkam o'zlashtiradilar. Bu jarayon tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladi va bolalarda mustaqil fikrlash, xavfsizlik qoidalariga ongli yondashuv shakllanadi. Bu kabi texnologik yondashuv maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi – bolaning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yo'l harakati qoidalarini o'rgatishning zamonaviy yondashuvlaridan biri – bu zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda ta'limni tashkil etishdir. Bolalar avvaliga pedagog kuzatuv ostida raqamli o'yinlar, animatsiyalar, simulyatorlar orqali ko'rish, eshitish va harakat orqali tajriba orttiradilar, keyinchalik esa mustaqil ishlashga

o'tadilar. AKT vositalari orqali ular svetofor, yo'l belgilari, zebra chizig'i kabi elementlarni o'rganib, kundalik hayotda qo'llashga tayyor

bo'ladilar. Bu esa zamonaviy maktabgacha ta'limning asosiy yo'nalishi – bolani maktabga va hayotga tayyorlashga xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil: Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar orqali mashg'ulot o'tkazish

<i>Mezonlar</i>	<i>O'zbekiston</i>	<i>Koreya Respublikasi</i>	<i>Finlyandiya</i>	<i>Singapur</i>
Raqamlashtirish siyosati	"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida bosqichma-bosqich raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda.	Davlat darajasida "Smart Education" siyosati asosida raqamli transformatsiya to'liq joriy qilingan.	Raqamli tenglik, ochiq resurslar va texnologik integratsiya ustuvor yo'nalish.	"Future Ready Learners" konsepsiyasi asosida ilg'or raqamli yondashuvlar keng joriy qilingan.
Maktabgacha ta'limda AKTdan foydalanish	Dastlabki bosqichda: raqamli didaktik vositalar, multfilmlar, mobil ilovalar sinovdan o'tkazilmoqda.	Har bir bolaga planshet yoki sensorli qurilmalar ajratiladi. Interaktiv darslar platformasi mavjud.	Bolalar raqamli vositalarni o'z ixtiyoricha tanlaydi; o'yin asosida o'rgatish (playful learning).	AKT mashg'ulotlar kundalik jadvalga integratsiya qilingan, robotika va kodlash darslari ham bor.
Pedagog tayyorlash tizimi	AKT bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari mavjud, ammo tizimli tayyorlov hali takomillashmoqda.	Pedagoglar yiliga kamida 2 marta AKT bo'yicha majburiy qayta tayyorlanadi.	Har bir pedagog AKTni psixologik-pedagogik yondashuv asosida qo'llaydi.	Pedagoglar texnologiyalarni dars rejasiga moslashtirish bo'yicha chuqur o'qitiladi.
Mashg'ulot o'tkazish formati	Interaktiv doska, video darslar, tasviriy texnologiyalar orqali mashg'ulotlar o'tkaziladi.	Virtual laboratoriyalar, mobil darslar, sun'iy intellekt asosida tavsiya tizimlari mavjud.	Bolalarning qiziqishiga mos ravishda AKT tanlanadi. Jarayon bolaga yo'naltirilgan.	Kodlash, muammo yechish, AR/VR muhitda o'yinli o'qitish ishlatiladi.
Texnologik infratuzilma	Dastlabki bosqich: ayrim MTTlarda planshetlar, elektron doskalar, Wi-Fi mavjud.	Barcha MTTlar raqamli jihozlar bilan to'liq ta'minlangan.	Kichik guruhlarda texnologiyalar erkin foydalanish uchun joylashtirilgan.	Har bir bola uchun personal qurilma mavjud. 5G tarmog'i orqali onlayn ulanish imkoniyati.

Xulosa shuki: Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida yo'l harakati qoidalarini o'rgatish bolalarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayoniga interaktiv vositalarni joriy qilish orqali nafaqat bilim berish, balki ularning ongli harakat qilish malakasini mustahkamlash mumkin. Shu bois, ushbu yo'nalish maktabgacha ta'limda ustuvor strategik vazifa sifatida e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrdagi 848-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2022 yil 4 apreldagi PQ-190-son qarori.
3. "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi, Toshkent – 2022.
4. Userbayeva F.I. Effectiveness of Introduction of Digital Technologies in the Educational Process. CSPU Conference – 2023.
5. Nigmatov A.N., Buriev X.K., Mirsaatova Sh.R. Yo'l harakati qoidolari (ertalabki davra suhbat). O'quv qo'llanma.– Toshkent, 2023